

ISSN (E): 2181-4570

## PAXTA – TO`QIMACHILIK KLASTERI, XOMASHYO VA MATERIALLARNI QAYTA ISHLASHNI RESURS-TEJAMKOR TEXNOLOGIYALARI

Yo`ldasheva Muhayyo Alisher qizi  
Farg`ona politexnika instituti talaba  
[yoldashevamuhayyo99@gmail.com](mailto:yoldashevamuhayyo99@gmail.com)

Tel:+998916627993

### Annotatsiya

Mazkur maqolada, paxta- to`qimachilik klasteri, xoashyo va materiallarni qayta ishlashning yangi usulda va resurs-tejamkor texnologiyalar orqali amalga oshirish haqida ma`lumotlar berib o`tilgan.

### Аннотация

В данной статье представлена информация о внедрении классов хлопка и текстиля, домашних хозяйств и материалов по-новому и с помощью ресурсосберегающих технологий

### Annotation

This article provides information on the implementation of cotton and textile classes, households, and materials in a new way and through resource-efficient technologies.

### Tayanch so`zlar

Paxta, to`qimachilik, mahsulot, korxona, xomashyo, innovatsiya, qishloq xo`jaligi, texnologiyalar.

### Keywords

Mining, textiles, products, enterprises, raw materials, innovation, agriculture, technology

### Ключевые слова

Горнодобывающая промышленность, текстиль, продукция, предприятия, сырье, инновации, сельское хозяйство, технологии.

Hozirgi kunda paxta-to`qimachilik sanoatiga e`tibor sezilarli darajada ortgan. Shuningdek, paxta-to`qimachilik sanoatini keng targ`ib qilinmoqda. Ushbu sihani rivojlantirish maqsadida paxta-to`qimachilik klasteri faoliyati yo`lga qo`yilgan.

Paxta yetishtirish bilan shug‘ullanuvchi fermer yoki xo`jalik a’zolariga klasterning foydali tomonlarini quyidagicha izohlashimiz mumkin.

A) qishloq xo`jaligida zamonaviy bozor munosabatlarini keng joriy etish, yangi ish joylari yaratish va manfaatdorlikni ta`minlash imkonini beradi.

B) paxtachilikka ilg`or agrotexnologiyalarni joriy etish uchun qulaylik yaratadi, raqobatbardoshlikni oshiradi.

C) fermer xo`jaliklarini zamonaviy qishloq xo`jaligi texnikalari bilan ta`minlashga xizmat qiladi.

D) paxtadan tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmini yanada oshirib, uning eksportbopligini ta`minlaydi.

Jumladan, paxta-to`qimachilik klasterlari tarixiga nazar soladigan bo`lsak. Respublikada klasterlar tizimi 2017-yilda joriy etildi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi “Buxoro viloyatida zamonaviy paxtachilik-to`qimachilik klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-2978-son qarori asosida Buxoro viloyatida “BCT cluster” MCHJ QK hamda 2017-yil 15-sentyabrdagi “Sirdaryo viloyatida zamonaviy paxtachilik-to`qimachilik klasterini barpo etish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-3279-son qarori asosida Sirdaryo viloyatida “Bek cluster” MCHJ QK paxta-to`qimachilik klasterlari tajriba-sinov tariqasida tashkil etildi.

Tajriba-sinov davrida ushbu klasterlar kutilganidan ko`ra yuqori natija qayd etishdi. Shuning natijasida, 2018-yili paxta-to`qimachilik klasterlari soni 16 taga, 2019-yili 77 taga, 2020-yili 97 taga hamda 2021-yili 122 taga, 2022-yilda esa 134 taga yetdi va klasterlar respublikada mavjud paxta maydonlarining 100 foizini qamrab oldi.[1] Shuningdek, Paxta-to`qimachilik klasterlari faoliyatini yanada takomillashtirish, ularning qishloq xo`jaligi yerlaridan samarali foydalanishdagi roli va mas`uliyatini oshirish, mahsulot yetishtiruvchi va uni qayta ishlovchilarning manfaatdorligini ta`minlashga doir bozor tamoyillarini keng joriy etish maqsadida 2021-yil 16-noyabrdan “Paxta-to`qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PF-14-son O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni qabul qilindi.

Mazkur Farmonga asosan, paxta-to`qimachilik klasterlari faoliyatini muvofiqlashtirish respublika komissiyasi tashkil etildi. Shuningdek, paxta-to`qimachilik klasterlarini tashkil etishda to‘rt tomonlama bitim imzolash tartibi joriy etildi. Bunda bitim Vazirlar Mahkamasining paxta-to`qimachilik klasterini tashkil qilish bo`yicha qaroriga asosan Qishloq xo`jaligi vazirligi, «O`zbekiston paxta-

ISSN (E): 2181-4570

to`qimachilik klasterlari» uyushmasi, tegishligiga ko`ra Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi yoki viloyat hokimligi va paxta-to`qimachilik klasterini tashkil qilish bo`yicha talabgor o`rtasida o`ttiz yil muddatga, talabgor chet - el investitsiyalari ishtirokidagi korxona yoki chet ellik yuridik shaxs bo`lgan taqdirda yigirma besh yilgacha bo`lgan muddatga tuzilishi belgilangan. [2] Ushbu Farmonda paxta-to`qimachilik klasterlari tomonidan yetishtiriladigan yoki sotib olinadigan paxta xom - ashvosining kamida 50 foizini o`zida qayta ishslash quvvati mavjud bo`lgan talabgorlarga boshqa shaxslarga nisbatan ustunlik berilishi belgilab qo`yilgan. Mazkur mezon, paxta-to`qimachilik klasterlari faoliyatini muvofiqlashtirish respublika komissiyasi tomonidan paxta-to`qimachilik klasterlarini tashkil etish uchun talabgorlarning arizalarini ko`rib chiqish davrida e`tiborga olinadi va talabgorlarga klaster tashkil etiladigan hududlar uchun o`tkaziladigan tanlovda ustunlik berishi nzarda tutilgan. Bugungi kunda bizlarga ma`lum bo`lib turgan statistik ma`lumotlar quyidagicha;

### Paxta-to`qimachilik klasterlari statistikasi

Bugungi kunda respublika bo`yicha 134 ta paxta-to`qimachilik klasterlariga 1 034,2 ming ga (100%) yer maydonlari biriktirilgan.

Klasterlar tomonidan 2022-yilda yetishtiriladigan 3 mln 800 ming tonna paxta xomashyosidan me`yor bo`yicha 1,3 mln tonna (34%) tola ishlab chiqariladi.

Ayni paytda klasterlarda 1,9 mln tonna tola ishlab chiqarish quvvatlari mavjud bo`lib, yetishtiriladigan paxta xomashyosi mavjud quvvatlarni 58 foizga ishslashini ta'minlaydi (705 ming tonna yoki 42 foiz ortiqcha tola ishlab chiqarish quvvatlari mavjud).

Sohaga ilm-fan, innovatsiya yutuqlari hamda ilg`or texnologiyalarni joriy etish natijasida, 2016 – 2021-yillarda paxta hosildorligi 26,4 s/gadan 32,7 s/ga (+6,6 s/ga)ga oshdi. Yalpi hosil 2021-yilda 3,4 mln tonnaga yetkazildi.

Buning uchun klasterlar tomonidan, 5,4 trln so`mlik 21,4 ming dona yuqori unumli texnika va agregatlar xarid qilinib, qishloq xo`jaligi texnik jihatdan yangilandi.

83,4 ming hektar paxta maydonlariga suv tejovchi texnologiyalar o`rnatalib, 30,3 ming hektar yer maydonlari qayta foydalanishga kiritildi.

2021-yilda 106 ming hektar maydonda 25 ta paxta-to`qimachilik klasterlari faoliyati yo`lga qo`yildi.

ISSN (E): 2181-4570

Shuningdek, hozirgi vaqtga kelib, ikkilamchi resurslardan samarali foydalanish g`oyasi keng targ`ib qilib kelinmoqda. Jumladan, to`qimachilik chiqindilaridan foydalanishning noan`anaviy lekin samarali usullaridan biri- ko`p qavatli rulon materiallari, to`qimachilik devor panellari payvandlovchilar uchun maxsus kiyimi uchun olovga va issiqqa chidamli materiallari ishlab chiqarishdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. <https://www.agro.uz/11-0295/>
2. PAXTA-TO`QIMACHILIK KLASTERLARI: ILG`OR TEXNOLOGIYALAR, ZAMONAVIY BOZOR MUNOSABATLARI VA EKSPORTBOP TAYYOR MAHSULOT - AGRO.UZ
3. Gulbayev U. Y. O., Ruzmatov B. S., Yuldashev K. X. CREATION AND INTRODUCTION OF INNOVATIVE EDUCATION CLUSTER IN THE LEATHER AND FUR INDUSTRY //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 1.
4. Jumaniyazov Q. J. et al. Korxonalarda paxta tolasidan saralanmalar tuzish tartibi //Science and Education. – 2021.
5. Jumaniyazov Q. J. et al. YIGIRISH JARAYONI O`TIMLARI BO`YICHA ARALASHMA TARKIBIGA ASOSAN CHIQINDI VA IP MIQDORINING O`ZGARISHI //Science and Education. – 2021
6. Mikusova M. et al. Designing of Parking Spaces Taking into account the Parameters of Design Vehicles in Russia //Communications-Scientific letters of the University of Zilina. – 2020. – T. 22. – C. 31-41.
7. Эргашов М. и др. Определение натяжения композитного ремня передаточного механизма //Композиционные материалы. – 2003. – №. 3.